



## XALQ DEPUTATLARI URGUT TUMANI KENGASHI QARORI

141600, Urgut tumani, Navoiy shoh ko'chasi, 104-uy, 66-483-04-42

2022 - yil 30 - dekabr

VI-95-274-7-105-K/22

Urgut tuman hokimligi

### **Urgut tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalari, "Byudjet kodeksi"ning 99-moddasi, "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuniga hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2022-yil 29-dekabrda "Samarqand viloyatining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-79-250-7-0-K/22-sonli qaroriga muvofiq, xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining oltinchi chaqiriq, navbatdan tashqari to'qson beshinchi sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2022-yil 29-dekabrda "Samarqand viloyatining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-79-250-7-0-K/22-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2022-yil 29-dekabrda "Samarqand viloyatining 2023-yilgi mahalliy byudjeti tasdiqlash to'g'risida"gi VI-79-250-7-0-K/22-sonli qaroriga muvofiq, Urgut tumani mahalliy byudjetining 2023-yil uchun daromadlari 264 milliard 15 million 200 ming so'm, xarajatlari 525 milliard 492 million 986 ming so'm prognoz qilinganligi hamda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 261 milliard 477 million 786 ming so'm miqdorida tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

2023-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq;

2023-yil uchun tumanning tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

2023-yil uchun viloyat byudjetidan tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori 261 milliard 477 million 786 ming so'mga tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-yil uchun tumanning tuman byudjeti zaxira jamg'armasi hajmlari 4 milliard 957 million 481 ming so'm miqdorida belgilansin.

5. 2023-yil uchun tumanning tuman byudjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan byudjeti mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 2 milliard 85 million so'm belgilansin.

6. O'zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjeti xarajatlarini hududiy byudjeti mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

7. Qarorga muvofiq, 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman byudjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

norudaqurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;

yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i;

aylanmadan olinadigan soliq

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini ijaraga berish va xususiylashtirishdan tushadigan daromadlar;

ayrim tovarlarning chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig'im;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig'imga (bojxona yig'imga tashqari);

avtotransport vositalarini xarid qilganlik uchun ularni ichki ishlar organlarida ro'yxatdan o'tkazish chog'ida avtotransport egalari (foydalanuvchilari) tomonidan to'lanadigan yig'imga.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa to'lovlar viloyatning viloyat byudjeti hamda tuman mahalliy byudjeti o'rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tushumlarning (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan to'lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'idan tashqari) 70 foiz miqdorda tuman byudjetiga;

foyda solig'idan tushumlarning (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to'lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to'lanadigan foyda solig'idan tashqari) 50 foiz miqdorda tuman byudjetiga.

mobil aloqa xizmatlari uchun, sigaret uchun va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'idan tushumlar 2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

8. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (U.Kamolov), tuman hokimligi Moliya bo'limi (O.Qorayev), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (O.Suvonov) va mas'ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarish;

byudjeti mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjeti intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash;

byudjeti daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

9. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (U.Kamolov), xalq deputatlari Urgut tumani Kengashi kotibiyati (X.Rashidov)lar:

byudjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlash;

soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, byudjeti mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat'iy nazoratni o'rnatish;

tegishli ravishda hududiy byudjeti mablag'lari taqsimlovchilarning byudjeti mablag'laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo'yicha hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta'minlasin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjeti, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Muibov) va tuman hokimining birinchi o'rinbosari (U.Kamolov) zimmasiga yuklatilsin.

11. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**B.Jabborov**

Xalq deputatlari Urgut tuman  
Kengashining  
2022 yil 30 dekabrda  
VI-95-274-7-105-K/22-son  
qaroriga  
1-ilova

**Urgut tumani mahalliy budjetining 2023-yilgi asosiy daromad ko'rsatkichlari**

<b>№</b>	<b>Daromad turlari</b>	<b>Jami (ming so'mda)</b>
<b>Jami summa:</b>		<b>264 015 200,0</b>
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	72 286 200,0
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	6 466 000,0
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	13 566 000,0
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	13 592 000,0
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	5 342 000,0
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 008 000,0
7	Norudaqurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	950 000,0
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 640 000,0
9	Yuridik shaxslar yer solig'i	24 634 000,0
10	Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	9 594 000,0
11	Aylanmadan olinadigan soliq	16 516 000,0
12	Yig'imlar	849 000,0
13	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	203 000,0
14	Alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo	35 345 000,0
15	Mobil aloqa xizmati	15 161 000,0
16	Sigaret uchun aksiz solig'i	36 863 000,0

Xalq deputatlari Urgut tuman  
Kengashining  
2022 yil 30 dekabrda  
VI-95-274-7-105-K/22-son  
qaroriga  
2-ilova

**2023-yil uchun Urgut tumanining yil uchun mahalliy budjetdan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan budjet ajratmalarining cheklangan miqdorlari**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkich</b>	<b>Summa (ming so'm)</b>
<b>Urgut tumani bo'yicha xarajatlari miqdori, Jami:</b>		<b>525 492 986,0</b>
1	Tuman Xalq ta'limi bo'limi	23 906 517,0
2	Tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi	24 846 771,0
3	Tuman Sog'liqni saqlash bo'limi	138 350 000,0
4	Tuman Madaniyat bo'limi	4 949 423,0
5	Tuman Sportni rivojlantirish bo'limi	5 580 681,0
6	Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi	1 576 825,0
7	Tuman Irrigatsiya bo'limi	1 535 000,0
8	Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi	2 494 500,0
9	Tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi	1 072 139,0
10	Tuman hokimligi Moliya bo'limi	1 537 724,0
11	Tuman hokimligi	292 049 617,0
12	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Urgut tumanidagi muassasalar	582 785,0
13	Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashi	198 443,0
14	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Urgut tuman bo'limi	11 072 770,0
15	Tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi	7 051 591,0

16	Tuman Mahalla va nuroniylarni qullab-quvvatlash bo'limi	8 688 200,0
----	---	-------------